Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: YF0331762307
Булунғур туман тиббиёт бирлашмаси

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO`G`RISIDA**
**HUQUQIY XULOSA**
№ WI17420372

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma

2. **Loyihani nomi:**Xizmat ko`rsatish
"Obunachi" deb ataluvchi Bulung'ur tuman tibbiyot birlashmasi, nizomi asosida ish yurituvchi raxbar V.Y.Xudayqulov, ikkinchi tomondan Alan media" MChJ, "Obuna qiluvchi" nomidan ustav asosida ish olib boruvchi direktor Sh.D.Usmanaliev tomonidan tuzilgan 109 900 000 so'm( Bir yuz to'qqiz million to'qqiz yuz ming so'm) so`mlik obuna shartnoma loyixasi.

3. **Loyiha ishlab chiquvchi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot**
Bulung`ur tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 05-yanvar kuni ishlab chiqilgan va huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun dasturga kiritilgan

Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunning 10-moddasi talablariga muvofiq tuzilgan. Shartnomada belgilangan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining pudrat shartnomasi to'g'risidagi normalar bilan tartibga solingan va taraflarning javobgarligi va nizolarni hal qilish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Bulung`ur tuman Yuridik xizmat
ko`rsatish markazi bosh yuristkonsulti N.Abdiyev

## ShARTNOMA №1

**T o s h k e n t   shahri** «05» январ 2022 yil

Bir tomondan bundan keyin matnda "Obunachi" deb ataluvchi Bulung'ur tuman tibbiyot birlashmasi, nizomi asosida ish yurituvchi raxbar V.Y.Xudayqulov nomidan, ikkinchi tomondan "Alan media" MChJ, bundan keyin matnda "Obuna qiluvchi" nomidan ustav asosida ish olib boruvchi direktor Sh.D.Usmanaliev quyidagilar haqida ushbu shartnomani tuzdilar.

### ShARTNOMA PREDMETI

1.1. «Obuna qiluvchi» ushbu shartnomaga asosan «Obunachi»ga o'zaro kelishilgan miqdorda va muddatlarda shartnomaning umumiy qiymatidan oshmagan summadagi nashrlarni yetkazib beradi. «Obunachi» yetkazib berilgan nashrlarni qabul qilib olib, to'lov xujjatlarini amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtiradi. «Obunachi» to'lov hujjatlariga asosan belgilangan to'lov ketma-ketligiga rioya qilgan xolda xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida belgilangan tartibda xisob raqamidan to'lovlarni amalga oshiradi.

| Matbaa nashrlarining nomi | Komp-lekt soni | 12 oylik narxi | Etkazib berish davri | Summa QQSsiz (so'mda) |
|---|---|---|---|---|
| Jurnal «Salomat bo'ling» Obuna indeksi: 7053 | 314 | 350 000 | 2022 yil | **109 900 000** |

**To'lov jami: (Bir yuz to'qqiz million to'qqiz yuz ming ) so'm QQSsiz.**

### 2. Shartnoma baxosi, nashrni yetkazib berish va xisob-kitob tartibi.

**2.1.** Mazkur shartnomaning umumiy qiymati **109 900 000 so'm**( Bir yuz to'qqiz million to'qqiz yuz ming so'm)ni tashkiletadi.

Yetkazib beriladigan nashrlarning shartnoma tuzish vaqtidagi miqdori, narxi va yetkazib berish muddatiushbu shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan.

**2.2.** «Obunachi» yetkazib beriladigan nashrlar uchun xisob-kitobni o'zaro kelishilgan muddatda oldindan100 % «Obuna qiluvchi»ga to'lab beradi.

**2.3.** «Obunachi»ga nashrlar «Obuna qiluvchi»ning xodimlari orqali yetkazib beriladi.

**2.4.** «Obuna qiluvchi» tegishli davrda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq belgilangan miqdordanashrlar shartnoma imzolangan kundan boshlab 3 bank ish kuni muddatida amalga oshiradi.etkazib beradi.

**2.5.** «Obuna qiluvchi» tomonidan «Obunachi»ga mazkur shartnomaning umumiy qiymatidan ortiq summada nashrlarni yetkazib berilgan xolatlarda, shartnoma umumiy summasidan ortiq qismi uchun xaq to'lanmaydi.

### 3. Shartnomani bajarilishi .

**3.1** Mazkur shartnoma va konun hujjatlari shartlari va talablariga muvofik tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlansa, shartnoma bajarilgan xisoblanadi.

**3.2.** «Obunachi» ilgari berilgan talabnomani bekor qilishga yoki nashrlarning tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga xaqlidir, bu xaqida «Obuna qiluvchi»ni talabnomada ko'rsatilgan sanaboshlanishidan kamida 1 (bir) oy oldin xabardor qiladi.

**3.3.** «Obunachi» muddatlari o'tgan xollarda yetkazib berilgan nashrlarni qabul qilishni rad etishgaxaqlidir.

**3.4.** «Obunachi» «Obuna qiluvchi» tomonidan nashrlarni o'z vaqtida yetkazib berilmagan yoki sifatsiz, muddati o'tgan nashrlarni yetkazib berilgan xolatlarda shartnomani «Obuna qiluvchi»ning yozma xabardor qilgan holda bir tomonlama bekor qilish mumkin. Qolgan xolatlarda shartnoma shartlariga tegishli o'zgartirishlar tomonlarni o'zaro qo'shimcha kelishuvlariga muvofiq kiritiladi.

### 4. Tomonlarning majburiyatlari
### «Obuna qiluvchi» ning majburiyatlari

**4.1.** «Obuna qiluvchi» yetkazib beriladigan nashrlarning sifatini O'zbekiston Respublikasiningamaldagi qonunlariga muvofiq bo'lishini va o'zaro kelishilgan miqdorda bo'lishini ta'minlaydi.

**4.2.** Nashrlarni qabul qilib olish vaqtida aniqlangan kamchiliklarni «Obunachi» talabiga muvofiq uchkun muddatda bartaraf etadi.

**4.3.** Obuna qiluvchi obunachiga davriy nashrlarni 2022 yil yanvar oyidan 2022 yil 31 dekabrgacha yetkazib berish majburiyatini oladi.

### «Obunachi» ning majburiyatlari

**4.4.** O'z talabnomasi bo'yicha yetkazib berilgan nashrlarni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish.

Кўриб чиққан ижрочи: ABDIYEV NURIDDIN AMIR O'G'LI Ҳужжат рақами: YF0231762307

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: WI17420372

4.5. Nashrlarni mazkur shartnomaning 1-ilovada ko'rsatilgan narx bo'yicha belgilangan muddatlarda uzil-kesil xisob-kitoblarni amalga oshirish uchun tegishli hujjatlar rasmiylashtiradi.

### 5. Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

5.1.Nashrlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan xollarda «Obuna qiluvchi» «Obunachi»ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 % miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar baxosining 50 % dan oshib ketmasligi lozim. Penya to'lash «Obuna qiluvchi»ni nashrlarini yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.2. Yetkazib berilgan nashrlar xaqqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun «Obuna qiluvchi»ga o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 % idan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

### 6. Nizolarni xal etish tartibi.

6.1. Kelishmovchilik va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar qoidaga ko'ra mustaqqilravishda ularni sudgacha xal qilish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchilik va nizolarni xal etish uchun bevosita davogarning joylashgan manzilidagiiqtisodiy sudga murojaat etishga xaqlidir.

### 7. Fors-major.

7.1. Fors-major xolatlar, jumladan yer qimirlashi, sel kelishi kabi tabiiy ofatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi xukumati tomonidan yangi qonun va qarorlar qabul qilinishi natijasida kelib chiqadigan holatlarda taraflar mazkur shartnoma va qo'shimcha kelishuvlar shartlarini bajarish mas'uliyatini o'z zimmalariga olmaydilar.

### 8. Shartnomani amal qilish muddati.

8.1. Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Mazkur shartnoma 2 (ikki) nusxada tuziladi va ikkalasi xam teng yuridik kuchga ega.

### 9. Tomonlaraning manzillari va rekvizitlari.

| | |
|---|---|
| OOO «ALAN Media» | Bulung'ur tuman tibbiyot birlashmasi |
| Tashkent shahri Mirobod tumani Buyuk Turon 41 | O'zbekiston ko'chasi 96-uy |
| Faks/tel: (099871)2333469, 909192562 | x/r 100022860182067073101054001 |
| r/sch 20208000500401951003 | Mfo:00014 |
| v AKB «ASIA ALLIANCE BANK» | Inn: 200731264 |
| Mirabadskiy f-l MFO 01124 | Okonx: 91511 |
| INN 303086634 502808171 | Toshkent markaziy bank |
| OKED 58140 | |

Direktor ________________ Sh. D.Usmanaliev

ALAN MEDIA

Rahbar ________________ V.Y.Xudayqulov